

**SHOHIDA SUVANKULOVA**

*Onam kutar*



**«ISTIQLOL»  
TOSHKENT  
2015**

UO'K: 821.512.133-1 - Ўзбек агадиётни  
KBK: 84(5O')7  
S-95

**84(5O')7  
S-95**

**Suvankulova, Shohida.**

**Onam kutar:** she'rlar / Sh.Suvankulova. — Toshkent: Istiqlol,  
2015. — 32 b.

ISBN 978-9943-4458-5-7

Bu iste'dodli ijodkorning she'rlarida ona Vatan, kindik qoni to'kilgan zamin o'zgacha mehr va sog'inch hisi bilan kuylanadi. Uning ilhom bulog'idan nafaqat mehribonlari, do'st-u yaqinlari, ustozlari, balki tabiatning betakror navnihollari ham bahramand bo'ladi. Hayot deb atalmish umr daftaringin go'zal va sertashvish onlari ham uning nazaridan chetda qolmaydi.

Yosh shoiraning ushbu to'plamidan joy olgan she'rlari sizda ham iliq taassurot qoldiradi, deb o'ylyaymiz.

Alisher Navoiy

2015/104  
A6484

nemidagi

O'zbekiston MK

**UO'K: 821.512.133-1  
KBK: 84(5O')7**

ISBN 978-9943-4458-5-7

© «Istiqlol nashriyoti», 2015.

10 43825  
0

## VATAN

Hatto gardingni ham ko'zga suraman,  
Onam yopgan aziz nonimsan —Vatan.  
Ko'ksimning ostida asrab yuraman,  
Tun-kunda jonsarak jonimsan Vatan!

Tirnog'im ostidan tovonimgacha,  
Jo'sh urib oqajak qonimsan — Vatan.  
Qonim-ki, ne ekan, nomimning qadri,  
Insoniylik degan orimsan — Vatan!

O'sgan sari daraxt tomirlarimga,  
Chashma kabi madadkorimsan — Vatan.  
Ki, zilol kaftimning ostginasida  
Gupillab urajak yuraksan — Vatan!

Ta'rifing nazmida sarson-sargardon,  
Qadring sharafiga zoringman — Vatan.  
So'zlar topolmaydi bechora ko'nglim,  
Ham yo'g'im, ham o'zing borimsan — Vatan!



## O'ZBEKISTON

Bu yurtlarga she'rlar yozsang, she'r yarashar,  
Bu yurtlarga doston bitsang el qarashar,  
Ishni boshla, do'sting senga qilar hashar.  
Hotamtoylit pallasida O'zbekiston,  
O'zbegimning yallasida O'zbekiston.

Sahargohdan chug'urchuqlar biyron sayrar,  
Qo'shiq qilib, kuyin bilib jiyron sayrar,  
Qaldirg'ochi "Bomdod" vaqtı chunon sayrar.  
Nafasi-yu ham sasida O'zbekiston,  
O'zbegimning yallasida O'zbekiston.

Yer tinchidan musichalar yerda yurar,  
Bolalarin rizqini shu yerdan olar,  
Vodiyidan voha tomon quyosh kelar.  
Dehqonimning dalasida O'zbekiston,  
O'zbegimning yallasida O'zbekiston.

Giyohlarni ko'kartirar sehrlari,  
Amu bilan Sirdek oqar mehrlari,  
Jannatlarni yaratadi mohirlari.  
Onalarning allasida O'zbekiston  
O'zbegimning yallasida O'zbekiston.

Balog'atga yetib qoldi ozod yoshi,  
Omon bo'lib, kamol topsin aziz boshi,  
To'y-hashamda otaxonlar davra boshi.  
To'yonalar chillasida O'zbekiston,  
O'zbegimning yallasida O'zbekiston.

Bu yurtlarda to'ylar qilsang to'y yarashar,  
Bu yurtlarga kuylar bitsang, kuy yarashar,  
Xonadoni mehmonga boy, kel, yarashar.  
Tuyg'ularim pallasida O'zbekiston,  
Yuragimnig yallasida O'zbekiston.

## **ONAM KUTAR**

Ko‘nglim bilan dardlashganda,  
Yolg‘iz qolib sirlashganda,  
Do‘srlar goh uzoqlashganda,  
Meni faqat onam kutar.

Hayallasam hatto bir on,  
Deydi uzoq bo‘lsin yomon.  
Yetib kelsin joni omon,  
Meni faqat onam kutar.

Jondan o‘tsa savdolari,  
Ig‘vogarning ig‘volari.  
Dunyo-dunning g‘avg‘olari  
Meni faqat onam kutar.

Ichgan qultum choyida men,  
Obi-yovg‘on moyida men,  
Izlagan har joyida men,  
Meni faqat onam kutar.

Yig‘lasam gar chindan kuyar,  
Buncha mehr, qanday suyar?  
Sog‘inch bilan yurak urar,  
Meni faqat onam kutar.

Kulsam olam bilan kular,  
Intiqligim har on bilar.  
Sochlaramni mayin silar,  
Meni faqat onam kutar.

Erkaligim ko‘taradi,  
Injiqligimni biladi.  
Shunda ham yaxshi ko‘radi,  
Meni faqat onam kutar.

Sevgi-yurak tilar ekan,  
Do'sting-siring bilar ekan.  
Onang -o'zing bo'lar ekan,  
Meni faqat onam kutar.

Ketsam agar safarlarga,  
Dunyo bo'ylab shaharlarga.  
Ko'zlarini yo'lga tikar,  
Meni faqat onam kutar.

Dil og'ritsam, dil beradi,  
Xato qilsam, yo'l beradi,  
Menga undek kim bo'ladi?  
Meni faqat onam kutar.

### BEVAQT QO'NG'IROQ

Uyingizni bezovta qildim, onajon,  
O'zingizni bezovta qildim, onajon.  
Ovozingiz tinglash uchun bir sim qoqib,  
Uyqungizni bezovta qildim onajon.

„Bolam yaxshimisan“, – demadingiz-a,  
Mehringizni qizg'onib, bermadingiz-a  
Katta bo'ldi, endi aqlli-hushli,  
O'ylab bu kulbamga kelmadingiz-a.

Yurakginam sovqatib ketyapti juda,  
Yig'laganim yo'q, rosti, men ham behuda  
Yolg'izlik farzandga yarashmas ekan,  
Siz-la dardlasholmasam netayin unda.

Birinchi raqamda taqdir bitigim,  
Mehringizga tashna edim intikib.  
„Bolam seni yaxshi ko'raman“ deying,  
„Rahmat“ aytolmayin qolay tutilib.

Ona yurakkinam orziqib ketdi,  
Nolalarim sizga borib ham yetdi.  
Rasmimni quchoqlab sog'ingan mahal –  
Hokisor qizingiz ash'orin bitdi.

Mag'lublar yig'laydi, men esa g'olib,  
To'rt devor ichida yuribman tolib.  
Aslida ruhimiz bir bo'lsa kerak,  
Yuragingiz ostidan tushdimmi qolib.

Tosh shahri toshlari ko'ksimga botdi,  
Kimlardir sirimni bildi-yu, sotdi.  
Kulgilarim ichra yana ming alamlar,  
Bir-birini tilib, yig'lashib yotdi.

Ko'z yoshim qo'shilmas daryolariga,  
Xayolimni bermayman ro'yolariga.  
„Bolam seni yaxshi ko'raman“ deng bas,  
Yo'qsa sig'may qolgum dunyolariga.

## ONAMGA

Ranglarga burkadim xira olamni,  
Chorasin topganday bari yumushni.  
Yoritmadiim lekin ko'ngil xonamni  
Sog'intirib qo'ydim munis onamni.

Nigohlari yo'lga qadalib qolgan,  
U tomon chorlaydi issiq non isi.  
Ko'zi quvonadi ko'rganda meni  
Sog'intirib qo'ydim munis onamni.

Simi uzun, ovoz kalta, telefon...  
Qaytaga yurakni o'rtab qo'yadi.  
Mehrsiz yaratdi mendek bolani  
Sog'intirib qo'ydim munis onamni.

Mehriga to'kilib gado bo'lipman,  
Siyratin unitib ado bo'laman,  
Agar u bo'lmasa netay olamni,  
Sog'intirib qo'ydim munis onamni.

## ONAM

Dunyo dardga to'lsa ham, farzandin suygan onam,  
Ming tashvishi bo'lsa ham, jilmayib qo'ygan onam.  
Sog'inchli nigohlarga baxtini tuygan onam,  
Nastarinning gulidek mehri iforli onam,  
Qirov qo'nmagan sochli, mehri iboli onam.

Qayga borsam tumordek ismi har dam yodimda,  
Kichikkina sur'ati yuragimda, yonimda.  
Yig'loqi she'r yozaman, nima qilay, borim-da.  
Yoshlarimni artmoqqa dastro'mol tutgan onam,  
Borolmay hayallasam, ko'chada kutgan onam.

Qizingiz bo'lib bir kun sizga o'xshay olmadim,  
Omdasizlikni baxtga o'rab yashay olmadim.  
Yaxshilar xizmatiga doim shay bo'lolmadim,  
Ajinlari yarashgan mehribon yuzli onam,  
Qaldirg'ochlar havasda qora qosh-ko'zli onam.

Satrida ma'no yashar ona deb she'rlar yozsam,  
Ilhomlarim qarashar ona deb she'rlar yozsam.  
Go'zal so'zlar yarashar, ona deb she'rlar yozsam,  
She'rlarga yarashiqli pokiza dilli onam,  
Daryo-yu, to'lqinlardan mavjli, keng fe'lli onam.



## KELDIM AYAJON

Sog‘inchimning marjonlari tizilib ketdi,  
Kutib-kutib sabrim oxir uzilib ketdi.  
Xayolimni jamlolmadim, buzilib ketdi,  
Sog‘inmagan uyingizga keldim ayajon,  
Siz kutmagan kuningizda keldim ayajon.

Visolingiz qimmatini bilgandim o‘zim,  
Asli diydor arzon emas deganda so‘zim.  
Nimagadir hiqillaydi, titraydi bo‘g‘zim  
Sog‘inmagan uyingizga keldim ayajon,  
Siz kutmagan kuningizda keldim ayajon.

Ko‘zlarizingiz yo‘llarimga qaramadimi,  
Kechalari qo‘lingiz soch taramadimi,  
Sog‘inganda sog‘inchlari arazladimi?  
Sog‘inmagan uyingizga keldim ayajon,  
Siz kutmagan kuningizda keldim ayajon.

## DADAMGA

Asli bir kam ekan bu azim dunyo,  
Birgina duosin bermasa ota.  
Yelkamda yukimning zalvori katta,  
Sizni sog‘inibman dadajon rosa.

Yarim asr bo‘ldi bu kun yoshingiz,  
Asrlarga tengdosh ustunsiz uyga!  
Qadam tashlolmasdik ildamlab kecha,  
Bugunchi yetibdi bo‘yimiz bo‘yga.

Chorlaydi ota uy boringiz uchun,  
Yuragim tug‘ilgan eng ulug‘ Vatan.  
Hokimsiz, biz uchun – aziz qiblagoh,  
Rozingiz olosam, baxtliman chindan.

Oshiqib qaytaman bugun Toshkentdan,  
O'zgarib demayman aslo „ada“jon.  
Haqiqatni anglab yetdim, men sizni  
Sog'inib ketganman juda dadajon.

## SOG'INIB

Sog'inib charchadim, sog'inib toldim,  
Sog'inib mehringni, yugurgim keldi.  
Ey, mening ko'nglimni o'ynatuvchi kuy –  
Bahorjon, men seni bir ko'rgim keldi.

Ko'kingdan chakkamga qo'ndirib tongda,  
Dalaning bag'riga o'zim otsaydim.  
Bir-birini quvgan bulutlarnigni  
Kuzatib lolalar bilan yotsaydim.

Quyosh nurlaridan ko'zim qamashib,  
Qizg'aldoqlar ichra ketsam adashib.  
Kelinchak misoli sepli ko'rkingga  
Chambarchas bir otlig' izvoshda yetsam.

Sog'inib mehringni, yugurgim keldi,  
Bahorjon, men seni bir ko'rgim keldi...



## **PIYOLA**

Har tong mehrim bo‘lib to‘kilar eding,  
Hatto senga boshin egardi choynak.  
Shirin bo‘salarni olarding labdan,  
Choyim senda doim turardi qaynoq.

Aybim nima edi, aybing ne edi,  
Nahot sen kichkina sig‘mading bunda  
Ko‘nglimdek kichkina, mitti piyolam.  
Chil-chil sinding endi, rozi bo‘l mendan.

## **NIGOHIDAN UQQANIM**

*(Zulfiyaxonim haykali poyida shoira  
vujudidan o‘tgan so‘zlar)*

Yillar o‘tdi bir-birin quvib,  
Yodingizdan chiqmayman hali.  
Bu kun menga haykal o‘rnatgan,  
O‘zbegimning o‘ziga balli.

Qator-qator kelar shogirdlar,  
Hamda xushro‘y Zulfiya qizlar.  
Faxr berar ularga ismim,  
Mening ko‘rkam davomchim izlar.

O‘shal damdek bugun quchog‘im,  
Guldastalar bilan limmo-lim.  
Mehmonlarni o‘g‘lim va qizim,  
Kutib olar, yana men – dilim.

She‘r deb qalam tutgan har qizning  
Yuragida yashayman hali.  
Bu kun menga haykal o‘rnatgan,  
O‘zbegimning o‘ziga balli.

## **AYOLSIZ**

Kulgingizla quyosh chiqar olamga,  
Labingizda qizil g‘uncha aksi bor.  
Luqmangizni deysiz doim bolamga,  
Oqila ayolsiz, sizga iqbol yor.

Ona tabiatning eng buyuk ishi,  
Suyuklisiz shuncha, sizga qancha zor.  
Bari erkaklarning shirin tashvishi,  
Mo‘tabar ayolsiz, sizga sevgi yor.

Ayting qay biringiz sevilmay qolgan,  
Husningizga ko‘zlar bo‘ysunmas beor.  
Oshiqni ortidan devona aylar  
Muqaddas ayolsiz, sizga vafo yor.

Mehr-la tebratib dunyo beshigin,  
Ochiq ko‘nglingizga zamin bo‘lar tor.  
Sizni deb ochilar jannat eshigi,  
Farishta ayolsiz, sizga iyomon yor.

Bolam deb yashaysiz, baxt, deb yashaysiz,  
Uyingizga bo‘hton gaplar qilmas kor.  
Shirin so‘z gadosi bo‘lib yashnaysiz,  
Dilnavo ayolsiz, sadoqatli yor.

Sizning nomingizda Vatanim – Onam,  
Aytay desam ta‘rif hali ko‘p bisyor.  
Qizim deb ardoqlab, qadr etadi,  
Ayolni mo‘tabar aylagan diyor.



## **BUVIJON**

Yomg‘irla yer ko‘karar,  
Duola el ko‘karar.  
Siz borsiz – onam kular,  
Duo qiling, buvijon.

Yuzga yetsin yoshingiz,  
Omon bo‘lsin boshingiz.  
Charchamas bilak bilan  
Duo qiling buvijon.

Yo‘qlab borganda har on,  
Nonga to‘la dasturxon.  
Buncha keng yurak bilan  
Duo qiling buvijon.

Hali chaqqon – tandir, non,  
Patir, kulcha, palovxon.  
Supra, un, elak bilan  
Duo qiling buvijon.

Nabiralar, o‘g‘il-qiz,  
Sizdan qoladigan iz.  
Kamolin ko‘ray deya,  
Duo qiling buvijon.

Bo‘lmasak-da mehribon,  
Kulib kutasiz har on.  
G‘animatdir bu diydor,  
Mingga kiring buvijon.

Yomg‘irla yer ko‘karar,  
Duola el ko‘karar.  
Siz borsiz – olam kular,  
Duo qiling buvijon.

## **QAYNONA**

*„Yopiqli qozon yopiqligicha qolsin“*

Qaynona “qay ona“ degan,  
So‘zlarингиз bekordir.  
Qalay, kumush emas aslo.  
Oltin demoq darkordir.

Allaqachon bo‘yin cho‘zgan,  
Niholga ko‘rk beradi.  
Ayting qaysi bobodehqon  
Bu ishni zo‘r qiladi.

Uyingizni to‘ldiradi,  
Nabirasiga qarar.  
O‘g‘lingizni “otam“ deya,  
Qizingiz sochin tarar.

Subhidamda joynomozda  
Siz uchun rizq so‘raydi.  
Tejab palov go‘shtlarini,  
Tok bargiga o‘raydi.

Bir yumushni mingga taqab,  
Yaxshingizni oshirar.  
Hali yosh, deb aybingizni  
Qo‘snilardan yashirar.

Erta sahar darvozani  
Mehr bilan ochadi.  
Ro‘zg‘oringiz shundan bekam,  
Barakasi oshadi.

Uxlab qolsa kelinposhsho,  
Ranjib qo‘yar quyoshdan.  
Uyquga hech to‘ymas edi,  
O‘zлari ham shu yoshda.

Oshxonaning ishlarida  
Keliniga qarashsa.  
Qaynonalar qanday chaqqon,  
Fartugi ham yarashar.

Qaynonasi bor uylarda,  
Tandirga non yopilar.  
G‘iybat bo‘lmas — shirin suhbat  
Qozon og‘zi yopilar.

### **QAYNOTA**

Sepli-mi, epli-mi, erka kelinman,  
Kelinni qaynota suyar deydilar.  
„Dada“ deb ta’zim-la qaynoq choy tutsa,  
Ne-nida so‘rasa eyar deydilar.

Yangi kelinligim ilk kundanoq  
Kelinin, qizim deb eyigan otam  
Ba’zida tunda ham pishirsam-kuysam,  
Sekin qaynonamni koyigan otam.

Ona bo‘lib bildim, onam mehrini,  
Otam bo‘lar ekan asli savlatim.  
Tomoq qirib hovlimizda yursalar,  
Shuning o‘zi ekan katta davlatim.

Bu misralar aslo she’r deyilmaydi,  
Satri titrab turar har jumlasining.  
O‘ylab oxiriga yetolmayapman,  
Bexato chiqsin deb bor imlosining.

Dilimning tubida ulkan mehr bor,  
Dadasi yo‘qlarga rahmim keladi.  
Mening dadamlarning dadalari bor,  
Yurakdan chindan-da, faxrim keladi.

Sochlariga hali qirov qo‘nmagan,  
Bir quchoq nabira ko‘rgan dadamsiz.  
Farzandim qo‘lidan tutib ilk bora  
Atak-chechak qilib qo‘ygan qadamsiz.

Qaynota „qay ota“ degani yolg‘on,  
Meni qizim degan yana otam bor.  
Otamday mehribon, otamday sofdiril,  
Haqiqiy otadek, yana hotamtoy.

So‘zlar ko‘p, to‘g‘risi, qalamim ojiz,  
Ota rozi uyda baraka bo‘lar.  
Ayalar qo‘rg‘onning oyi bo‘lsa gar,  
Dadasi bor uylar nurlarga to‘lar.

### BIR ZUMGA...

Hayot g‘ildirak misol  
To‘xtamay ketaverar.  
Birov avval, birov kech –  
Manzilga yetaverar.

Hayotimning yillari  
Qani ortga aylansa,  
Koptok deb opam bilan,  
Urushmoqqa shaylansam.

Dadam har hafta bizni  
Muzqaymoqqa oborsa.  
Arg‘imchoq uchish uchun  
Salqin bog‘ga yuborsa.

Juda sog‘inib ketdim,  
O‘sha baxtli damlarni.  
Bir-biriga beg‘araz,  
Kichkina odamlarni.

Opam, singlim va ukam  
Hovliga to'lib ketsak.  
Yoz kunlari so'rida  
Yulduzni sanab yotsak.

Erka edik barimiz,  
Bor edi injiqlik ham.  
Sho'xlik qilib ayamni,  
Yugurtirardim shu dam.


Bolaligam – quvonchim,  
Jon deb qaytaman unga.  
Dada siz kattasiz-ku,  
Olib keting bir zumga.

### SENGA YOQARDI

Ko'zimni ochgani qo'ymadni shamol,  
Va yana orqaga itardi ko'ksim.  
Qo'limni cho'zdim men va bo'ldim gumroh,  
Yillarning to'zoni berkitdi ko'zim.

„Sevaman“, „sevaman“ qadri qolmadi,  
Bu so'zning shunchalar siyqasi chiqdi.  
Tilimni tishladim, ayta olmadim,  
Xotiralar endi yuragim siqdi.

Atrofda nigohlar dildan qadalib,  
Xazon sevgim uchun gulxan yoqardi.  
Afsus, ilk qadamdan qoldim aldanib,  
Menga armonliging senga yoqardi.



## ISHQDAN BO'LAK

Ayro-ayro dunyolarda tug‘ilib biz,  
Boshqa-boshqa bo‘lib, bitta xayol sursak.  
Ko‘zgularning ortidagi dunyo rostmi?  
Ko‘zimizda yana ne bor, ishqdan bo‘lak.

Osmonlari kerak emas bizga asli,  
Yulduzlardan yasab oldik somon yo‘lak.  
Ulardanda chaqnayotgan shu olovdek,  
Yuzimizda yana ne bor ishqdan bo‘lak.

Bahorlarni kutmaymiz biz, quvonch har dam,  
Yuguramiz bog‘lanadi qo‘l va yurak.  
Tuyg‘ularin pichirlagan lola yanglig‘,  
Labimizda yana ne bor ishqdan bo‘lak.

Taqdirimiz abadlarga bitilganmi?  
Chig‘iriqdan o‘tayapmiz — elak-elak.  
Gunohlarni to‘kamiz deb birlashtirgan  
Kaftimizda yana ne bor ishqdan bo‘lak.

Ko‘zlarimga termulasiz, kiprik qoqmay,  
Ko‘zingizda yana ne bor ishqdan bo‘lak.  
“Meni” degan so‘zlarining rostmi, aytинг,  
Ko‘nglingizda yana ne bor ishqdan bo‘lak?

Yuragingiz men tomonga talpinganda,  
Bo‘lib qoling siz bir yurak, men bir yurak.  
Shunday seving, aylanmayin ro‘yolarga,  
Aslida men o‘zi kimman ishqdan bo‘lak.



## **BEKOR**

Ko‘zlarinez kulib-kulib kelmasangiz,  
Yuragingiz to‘lib-to‘lib kelmasangiz.  
Tashvishlardan tonib-tonib kelmasangiz,  
Sevaman deb aytganingiz bekor jonim.

Gul kerakmas, pul kerakmas, yo‘l kerakmas,  
Sizga bo‘lgan ishqim mening hech ermakmas.  
Bog‘imizda bo‘y cho‘zgan u — oqterakmas,  
Yo‘qsa sizning sevganiningiz bekor jonim.

Orqamdan u munisa, deb ertak aytmang,  
Erkalansam, hali yosh, deb erkalatmang.  
Ishonmayman, mehrim bor deb bekor aytmang,  
Ishontiring, yo‘qsa sevgi bekor jonim.

Tavbangizga tayantiray, deyman sizni,  
Bir kuydirib, bir kuydirib yuray sizni.  
Qahrim bilan, mehrim qo‘sib beray sizga,  
Yo‘qsa sevgi — hayotligi bekor jonim.

## **BAXT**

Sog‘intirib yashang mayli,  
Erkalanish asli odat.  
Siz deb chiqqan safarimda,  
Menga hamrohdir sadoqat.

Har soniya yeldek o‘tar,  
Soat milin kelar surgum.  
Bedor o‘tganidan tunim,  
Quyosh chiqmay, sahar turgum...

Sinab-sinab, kutib-kutib,  
Huzurimga kelasiz, bas.  
Ko‘k choy suzib uzataman,  
Uyingizda... kiyib atlas.

## G‘ANIMAT BILING

Erta-yu indinni qo‘ying joyiga,  
Yaxshisi bugunoq yonimga keling.  
Hatto, bugun ham kech bilingiz, darhol,  
Shu lahza qadrini g‘animat biling.

Menga „yoqmaysan“ deb ayta olmaysiz,  
Intikib visolni xayolda suring.  
Uy tomon otlaning hozir-hoziroq,  
Shu lahza qadrini g‘animat biling.

Or-u g‘urur bular bizniki emas,  
Bu so‘zlar kuchi-la yonimda bo‘ling!  
Titrab turar mening mitti yuragim,  
Shu lahza qadrini g‘animat biling.

Jonimdan jonlanib urar bir yurak,  
Kundan kun ulg‘ayar, holimni ko‘ring.  
Keyin qancha istang, takrorlanmaydi,  
Shu lahza qadrini g‘animat biling.

Ishoning siz deya oq oralagan,  
Asli qora sochim eslab ham turing.  
Ajin oralabdi yuzimga xiyol,  
Shu lahza qadrini g‘animat biling.

Lahzalar qadrini g‘animat biling,  
Poyimga sevgidan gullar keltiring.  
So‘nggida armonlar quchib qolmay deb,  
Shu lahza qadrini g‘animat biling.



## ARZON OSH BILMANG BIZNI...

Uy yumushi o'lsin-a,  
Supirgilar tinsin-a.  
Qoshga qo'yay o'smani,  
Arzon osh bilmang bizni.

Ko'nglingizni ovlayin,  
Yo'lingiz jilovlayin.  
Ayamang shirin so'zni,  
Arzon osh bilmang bizni.

Atlas bizga yarashar,  
Havas bilan qarashar.  
Quvnatay ko'zingizni,  
Arzon osh bilmang bizni.

Har maqomga yurg'alab,  
Noz-ishvaga o't qalab,  
Dog'latay pari qizni,  
Arzon osh bilmang bizni.

Biz alla aytgan chog' da,  
Ko'p yig'lar alam dog'da.  
Fido etganda o'zni,  
Arzon osh bilmang bizni.

Yigit ko'chada mahal,  
Bo'ydoq bo'lar qaytadan.  
Yurakdan aylay nozni,  
Arzon osh bilmang bizni.

Rashkim kelsa yomonman,  
Yaxshisiz-ki, ommonman.  
Ayoz qilmang yoz, kuzni,  
Arzon osh bilmang bizni.

## MENDAN RANJIMANG

Yonib yashayapman, o't-olovlarsiz,  
Tongla tunni kutib, tunlari bedor.  
Mehribon bir quchoq sog'intiradi,  
G'aribgina ko'nglim bo'ldimi bemor.

Qay eshikdan kirsam, mungli ko'zlar bor,  
Ularning bari ham yo'lga intizor.  
Kimdir baxt kutadi, kim mehr izlar,  
Kimga davlatining mo'lligi bekor.

Tashvishli dunyodan o'tib boryapmiz,  
„Holing ne?“ — deb so'rab qo'ymaydi birov.  
„Menchi“ demang, zinhor musofirlilikda...  
Qilarmidim sizga koshki, didiyo.

Orzula bag'rimga bosib jimgina,  
Yig'lasam, yoshimni artadi qizim.  
Shunga rozi bo'ldim, mendan ranjimang:  
Unutib qo'ysam gar sizni azizim.

## MANGLAYIMDAN

Sur'atimni ko'rdirim piyolangizda,  
Yonimda qizim — baxtimning mevasi.  
Issiq choy ichganda, sog'inchdan iyib,  
Manglayimdan o'pib qo'ying dadasi.

Buyuk daraxtimsiz, azim chinorim,  
Farzandlar bog'imning gul-u novdasi.  
Izg'irin, bo'rondan asrangda bizni,  
Manglayimdan o'pib qo'ying dadasi.

Bog'lar barpo qilib, ro'zg'orimizdan,  
Ketmon bo'lsangiz gar, bo'lay dastasi

Quyosh qizartirib, ter yarqiragan  
Manglayimdan o‘pib qo‘ying dadasi.

Zarlarga burkamang, atlas-u adres,  
Qurib ketsin tilla, zanjir shodasi.  
Salomatligingiz – davlatimizdir,  
Manglayimdan o‘pib qo‘ying dadasi.

Etak-etak farzand tug‘ib beraman,  
Hovlimizni bossin go‘dak sadosi.  
Beshikda ulg‘ayib borar kelajak,  
Manglayimdan o‘pib qo‘ying dadasi.

Qizimiz chiroyda misli malika,  
O‘g‘limiz bo‘lsiney xuddi otasi.  
Munis ayol, yaxshi ona bo‘lamani,  
Manglayimdan o‘pib qo‘ying dadasi.

Nabiralarimiz ming quchoq bo‘lar,  
Mehrim xonadonning katta sadasi.  
Qaddimiz tutamiz, tirgak bo‘lamiz,  
Manglayimdan o‘pib qo‘ying dadasi.

Er suymagan ayol, elga suyuksiz,  
Labingiz sillasin ishq shabbodasi.  
Erkalikmas – bular dildan istayman,  
Manglayimdan o‘pib qo‘ying dadasi.

To‘lganini ko‘rmam bir kam dunyonи,  
Deyman, yana sarob ekan hammasi.  
Nima bo‘pti, o‘zim emas, sur’atim,  
Manglayidan o‘pib qo‘ying dadasi.

Sur’atimni ko‘rdim piyolangizda  
Hijronday toshgandek sevgi bodasi.  
Qo‘lingizga olib, sahargohlari  
Manglayimdan o‘pib qo‘ying dadasi.

## DIL GAPIRAD

Biroz sukut saqlang, dil gapiradi,  
Ko'nglim o'ynay-o'ynay tolmadingiz-a?  
Sevilish baxtini his qilolmadim,  
Yana bir kechaga qolmadingiz-a?

Ketmayman deb bir bor ayta olmaysiz,  
Yonimda, jonimda asli joyinigiz.  
To'tiyo aylayman ortingizda jim,  
Safarga otlangan aziz poyingiz.

Mahzun o'tayapti umrim kunlari...  
Qoling deb so'rashga g'urur qo'ymaydi.  
Qarshingizda kulib yashashga ko'ndim,  
Yig'loqi ayolni erkak suymaydi.

Ayolinigiz bo'ldim shu xonadonda,  
Diydorga, visolga ko'p haq berguvchi.  
Ko'zimdan dumalab ketsa bildirmay,  
Hijronning durini ipga terguvchi.

Nigohlar gapirar, sarhush gapirar,  
Goho erkin bo'lib, behush gapirar.  
Pichirlab, tipirlab uy burchagida  
Hislarin berkitmay, bir dil gapirar.

Biroz sukut saqlang, dil gapiradi,  
Ko'nglim o'ynay-o'ynay tolmadingiz-a?  
Sevilish baxtini hadya etmoq-chun  
Quyosh nur sochguncha qolmadingiz-a?



## OYMOMA

Derazam ostida yig‘lar oymoma,  
Yuzida armondan dog‘i bor momo.  
Osmondan yiqilib tushib yuragi,  
Yerdagi juftiga endi zor momo.

Bulutlar ortidan ko‘z yoshin to‘kar,  
Olisdan baxt kutib yo‘lga ko‘z tikar.  
Ilinj deb atalgan nihollarini  
Nigohlari bilan yo‘llarga ekar.

Yolg‘izlik yarashmas senga oymoma,  
Qalbingni ochaqol menga oymoma.  
Menga kerak bo‘lmay qolgan sevgimni  
Tuhfa etaqolay senga boymomo.

\* \* \*

Qorlar oqqa belab ketti ko‘nglimni,  
Sochlarim tarab, silkidi shamol.  
Yana xayolimga keldingmi sevgi,  
Sening-chun bedorlik kelmaydi malol.

Uyqumni allalab sokin bo‘zladim,  
Kiprigini yopib olgan ko‘zlarim.  
Lablarim pichirlab titrab boradi,  
Sevgi sening deya chiqmas so‘zlarim.

Namuncha libosing harir bo‘lmasa,  
Toldi qo‘llarida tutqich bermasdan.  
Qiyna azoblanay, beorom har tun,  
Hissiyotsiz hayot uchun zormasman.

Ko‘nglimni qitiqlab qo‘ydingmi sevgi,  
Qudrating oldida bo‘ldim takror lol.  
Qaytadan ko‘nglimga keldingmi sevgi,  
Sen deya bedorlik kelmaydi malol.

## **YURAGIM**

Yuragimni ushlab o'lib qolaman,  
Sizga tutqazgani imkon bo'lindi.  
Yonginamda yashab siyratginangiz  
Ojiz yuragimga makon bo'lindi.

Qasam ichgan edik baxtli bo'lishga,  
Buzmoqlik noshudning ishi begumon.  
Baxtning zamoniga yetib bormoq-chun,  
Bugun yashayapman ishoning omon.

O'zimni yo'qotib qo'ydim sargardon,  
Sizni izlagani chiqqan safarda.  
Iltimos, o'zimga qaytarib bering,  
Huzuringiz sari borsa agarda.

O'zim bilan o'zim yashagim keldi,  
Nursiz bu dunyoda so'lib boraman.  
Sizga tutqazgani imkon kelmasdan,  
Yuragimni ushlab o'lib qolaman.

## **OLCHA GULI**

Xazonga uchradi o'sha beqaror,  
Ko'klamda kutgandim intizor bo'lib.  
Armonni quchoqlab qoldim bu kunda  
Yuragim urgandi orzuga to'lib.

Olcha gullagandi ko'chamda unda,  
Xayollar, havaslar ko'p mayda edi.  
Yong'oqlar to'libdi quchoqlarimga  
Qirmizi giloslar xo'sh qayda endi.

Tillarang barglarga ishqim tushmaydi,  
Kaftimda ezilib, sochilar zumda.

Mayda-mayda bo'lgan olcha gullari,  
Bog'iga ko'rak berib ochilar kimda.

Yo'lning bir chetida yelkasi egik,  
O'sha uyga ko'nglim qo'shilgan bugun.  
Yecholmayman, hargiz, mushkuli og'ir,  
Qon tomirlarimda siqilar tugun.

Olcha gullarining isi kelmoqda,  
Shabboda qay yo'ldan yelyapsan aytgin.  
Muhabbat atalmish bir maktubim bor,  
Shuni ol, manzilga tezroq sen qaytgin.

Maktubda bitilgan ushbu misralar:  
„Xazonga uchrading o'zing, beqaror  
Ko'klamda kutgandim,  
Armonni intizor bo'lib,  
Quchoqlab qolganu yuraging  
Urardi o'shanda orzuga to'lib...“

## SHE'RIM YANA O'ZING YAXSHISAN...

*Usmon NOSIRdan*

Ro'zg'orim she'r emish, bolam she'r emish,  
Ona koyib turing, she'r yozmay qo'ydim.  
G'iybatga ko'mildim uy burchagida,  
Ona koyib turing, she'r yozmay qo'ydim.

Yaxshiga yondoshib yashardim axir,  
She'r bo'lib misraga bezak berganda.  
Ko'nglimning jilovin erkin qo'yardim,  
She'rimni siz tomon olib borganda.

Samarqand nonini harchand maqtamang,  
Menga tatimaydi handon pistasi

Yolg‘iz qo‘ying bir oz zavqim keladi,  
Qarang tug‘ilmoqda she’rim misrasi.

Satrida tarixdan kelajak tomon  
Sehrli eshikni bunyod etaman.  
Har bandda o‘zimdan ul yorim tomon  
Mehrli eshikni bunyod etaman.

She’rimning ohangi bulbuldek go‘yo,  
Sayroqi ovozi biram xush navo.  
Parqudan bulut bor, quyosh nuri bor,  
Jildiroq soyi bor, yana xush havo.

Usmon Nosir kuylab o‘tgan she’rimsan,  
Gulzordagi gullar yana sharmanda.  
Bir shoir qalbimas, hayot naqshisan,  
Jonim kabi o‘zing yashaysan tanda.

Yuragim urmoqda gupur-gupuri,  
Demak, she’rim hali tug‘ilganing yo‘q.  
Men o‘tib ketaman, ammo sen yasha,  
O’shanda umrimdan ko‘nglim bo‘lar to‘q.

## DARVOZA

Befayz darvozaga tikilmang, aslo,  
Ortga qaytmas bo‘lib ketdi izlarim.  
To‘lgandim, bir toshdim sokingina jim,  
Sovqatib qolgandi biroz hislarim.

Nogohingiz qadab buzmang yo‘limni  
Qayrilib qaytmaslik safaridaman.  
Karvon uzun ammo, piyoda hamma  
Muallaq ketguvchi safaridaman.

Arshdan ko'ryapman yonginamdasiz,  
Foydasi bo'lindi ko'z yoshlarimni.  
Taftini unutdim ko'ksingizga bir,  
Bosib, quchgim keldi tosh boshlarimni.

Beayb darvozani qarg'amang, aslo  
Safarim ketguvchi, yo'lim ketguvchi.  
Tuproqdan yaralgan asli jismimiz  
Oqibat, tuproqqa bir kun qaytguvchi.

## BIROVNING UYIDAMAN

,*Birovning bolasi uyimda*“, Marhabo Karimovadan

Otasini dadam deb,  
Onasini ayam deb.  
Tashvish-g'amin birga yeb,  
Birovning uyidaman.

Haftada kun sanayman,  
Qosh-qovoqqa qarayman.  
Kunda sabrim sinayman,  
Birovning uyidaman.

Hammaga hisob berib,  
Hovli-ayvonni yig'ib.  
Jahlim chiqsa ham erib,  
Birovning uyidaman.

Erimga yalinaman,  
Onamga talpinaman.  
Bormay ham ovuniman,  
Birvning uyidaman.

Sahar uxlagan kunim,  
To‘lib ketadi xunim.  
Takror aytaman buni –  
Birovning uyidaman.

Ovqatni sho‘r qilmayman,  
Choyni to‘la quymayman.  
Piching gapni bilmayman,  
Birovning uyidaman.

O‘ng-so‘limga boqmayman,  
Xafa bo‘lsam yoqmayman.  
Suyulmayman, oqmayman.  
Birovning uyidaman.

Jovdiraydi ko‘zlarim,  
Qaltiraydi so‘zlarim.  
Yaxshi ko‘rar o‘zları,  
Birovning uyidaman.

Meni kutar parvonam,  
Kutib kuni ovvoram.  
Borolmayman sarsona,  
Birovning uyidaman.

Ona sog‘inib ketdim,  
Xayolan uygä yetdim.  
Surating qo‘yib yotdim,  
Birovning uyidaman.

Ne bo‘lsa „xo‘p“ dermishman,  
Sira qilmam mish-mishman.  
Yaxshi kelin emishman,  
Birovning uyidaman.

Chaqqon bo'l, deb o'rgating,  
Olgish ol, deb o'rgating.  
Baxtli kundan so'rating,  
Birovning uyidaman.

Birov o'zi yuragim,  
Asli menga keragim.  
So'raganim tilagim,  
O'shaning uyidaman.

### XATO QILDING

Biroz mag'rur bo'lgandimda,  
Baland kelib sha'nim-u orim.  
Ko'nglim sizga bog'laganda –  
„Endi kechdim“, demang yorim.

Gulzoringiz oralasam,  
Ko'kga ko'chdi dardim-borim.  
Kuyib-kuyib saralasam,  
„Sandan ketdim“, demang yorim.

Ortingizda qadri baland.  
Bir yurakni tinglang zorin.  
Sizni jondan suyganimda,  
„Xato qilding“, demang yorim.

Bardosh bermay sinovlarga,  
Qurdik bunda muhlat dorin.  
Sig'may ketsam dunyolarga,  
„Yaxshi boring“, demang yorim.

Shuncha azob, shuncha alam,  
Ko'rolmadim bir naf, korin.  
Sog'iniblar ketganimda,  
Bir bor yo'qlab qo'ying yorim.

## MUNDARIJA

Vatan .....	3	Senga yoqardi .....	17
O'zbekiston .....	4	Ishqdan bo'lak .....	18
Onam kutar .....	5	Bekor .....	19
Bevaqt qo'ng'iroq .....	6	Baxt .....	19
Onamga .....	7	G'animat biling .....	20
Onam .....	8	Arzon osh bilmang bizni.....	21
Keldim ayajon .....	9	Mendan ranjimang .....	22
Dadamga .....	9	Manglayimdan .....	22
Sog'inib .....	10	Dil gapiradi .....	24
Piyola .....	11	Oymoma .....	25
Nigohidan uqqanim .....	11	Yuragim .....	26
Ayolsiz .....	12	Olcha guli .....	26
Buvijon .....	13	She'rim yana o'zing yaxshisan .....	27
Qaynona .....	14	Darvoza .....	28
Qaynota .....	15	Birovning uyidaman .....	29
Bir zumga .....	16	Xato qilding .....	31

## SHOHIDA SUVANKULOVA

### *Onam kutar*

«ISTIQLOL» – Toshkent – 2015

*Muharrir*  
*Rassom*  
*Musahhih*  
*Sahifalovchi*

*F. Razzoqova*  
*H. Yaqubov*  
*N. Ataboyeva*  
*S. Po'latov*

Litsenziya raqami AI № 217. 03.08.2012-y. Bosishga ruxsat etildi 25.05.2015-y.  
 Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i 2,0. Adadi 1000 nusxa.  
 Buyurtma № 11.

«ISTIQLOL NASHRIYOTI» MChJ, Toshkent sh., 100129, Navoiy ko'chasi,  
 30-uy. Tel: 244-94-36. El. pochta: istiqlol-nashr@mail.ru.

«Istiqlol nashriyoti» MChJ matbaa bo'limida chop etildi. Toshkent sh., 100129,  
 Navoiy ko'chasi, 30-uy.